XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-noyabr VII-3-018-4-63-K/24 Mirishkor tumani

Mirishkor tumanida 2024 yil 3-chorakda mahalliy byudjetining ortirib bajarilgan mablag‘lar hisobidan tegishli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Mirishkor tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini hamda fikr va mulohazalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga asosan xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligining Mirishkor tumani mahalliy budjetining 2024 yil 3-chorakda mahalliy budjetining ortirib bajarilgan mablag‘lar hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kreditor qarzdorliklarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Shukurov)ga, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (SH.Nashirov)ga ushbu qarorga asosan mahalliy byudjet xarajatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va ajratilgan mablag‘ni o‘z vaqtida moliyalashtirib berishni ta’minlasinlar.

3. Ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishni tuman obodonlashtirish boshqarmasi bosh hisobchisi (N.Qurbonov), tuman tibbiyot birlashmasi bosh hisobchisi (B.Shomurodov), tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi bosh hisobchisi (T.Qorayev), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bosh hisobchisi (B.Primqulov) dan talab qilinsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sariqov, tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodovlar zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

G‘ULOMOV
FAYZULLO
QURBONOVICH

Xalq deputatlari Mirishkor tumani
Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-3-018-4-63-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Mirishkor tumanida 2024 yil 3-chorakda mahalliy byudjetining ortirib bajarilgan mablag‘larni tegishli sohalarga yo‘naltirish to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Mablag‘ chiqarish maksadi	Talab etiladigan (mln.so‘m)	Mablag‘ oluvchilar nomi
1	9-maktabni issiqlik tizimini ta’mirlashdan qolgan qarzdorlik xarajatlariga	150	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga
2	Nurafshon MFYda ko‘cha chiroqlari o‘rnatish	320	Mirishkor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
3	Zafar MFYda ko‘cha chiroqlari o‘rnatish	380	Mirishkor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
4	Safarbarlik chaqiruv rezervi uchun olingan tibbiyot asbob-uskunalari va jixozlari uchun	260	Tuman tibbiyot birlashmasi
5	Jeynov shifoxonasini issiqlik tizimini tamirlash ishlaridan bo‘lgan qarzdorlik uchun	380	Tuman tibbiyot birlashmasiga
6	Navro‘z mahallasi binosini qurilish ishlaridan bo‘lgan qarzdorlik uchun	470	Mirishkor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
	JAMI	**1960**	